



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 24yil “28” noyabr

№ 364

Toshkent sh.

### Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatuvchi tashkilot va unga biriktirilgan fuqarolar o'rtasida bitim imzolash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat tibbiy sug‘urta mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 5-sentabrdagi PQ-311-son qarorini sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida ijrosini tashkil etish maqsadida **buyuraman**:

1. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatuvchi tashkilot va unga biriktirilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etilgan chet el fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (voyaga yetmaganlar uchun ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari) o'rtasida tuziladigan bitim ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Sirdaryo viloyati va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshliqlari:

2024-yil 1-dekabrdan Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarning birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari va ularga biriktirilgan aholi o'rtasida bitim imzolash choralar ko‘rilsin.

#### Bitimda aholi:

sog‘lom turmush tarziga rioxat etish;  
zararli odatlardan voz kechish;  
o‘z tibbiy savodxonligini oshirish;  
shifokor ko'rsatmalariga amal qilish;  
profilaktik va skrining ko'riklardan belgilangan muddatlarda o‘tish;

#### oilaviy shifokor:

aholini belgilangan tartibda qabul qilish va maslahat (yoki yo'llanma) berish;  
tibbiy xizmatlarni o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq hajmda ko'rsatish;  
doi‘ vositalarini to‘g‘ri tayinlashga qat’iy rioxat qilinsin.

3. 2025-2026-yillarda Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etiladigan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari 2025-yil 1-yanvardan boshlab o‘z hududlari birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari va ularga biriktirilgan aholi o‘rtasida bitim imzolanishini ta’minlasin.

4. Matbuot xizmati (F.Sanayev) ushbu buyruq mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali aholining barcha qatlamlariga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish bo‘limi (N.Eshnazarov) “Uzinfocom” MChJ bilan birgalikda 2025-yil 1-chorakga qadar bitim shaklini elektron tizimga kirtsin va raqamlashtirsin.

6. Ushbu buyruqni ijrosi nazoratini sog‘liqni saqlash vazirining birinchi o‘rinbosari v.b D.Sultanov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

A.Xudayarov



# **Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasasi oilaviy shifokori va unga biriktirilgan jismoniy shaxs o‘rtasida tuzilgan**

## **BITIM**

Ushbu bitim birlamchi tibbiy sanitariya yordami ko‘rsatish muassasasi oilaviy shifokori va jismoniy shaxs o‘rtasida (keyingi o‘rinlarda – “Bitim”) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentyabrdagi **“Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-311-son qarori** asosida tuziladi.

Bir tomondan mehnat shartnomasi asosida faoliyat olib boruvchi keyingi o‘rinlarda – “Xizmat ko‘rsatuvchi” deb yuritiladi, ikkinchi tomondan jismoniy shaxs sifatida mazkur muassasasiga biriktirilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etilgan chet el fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, voyaga yetmaganlar uchun ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari (keyingi o‘rinlarda – “Bemor” deb yuritiladi) bilan (birgalikda “tomonlar” deb yuritiladi) ushbu bitim quyidagilar yuzasidan tuzildi.

### **1. Bitim predmeti**

**1.1. “Xizmat ko‘rsatuvchi”** Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasasi (keyingi o‘rinlarda – BTSYOM ) tomonidan Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari doirasida quyidagi tibbiy xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlaydi. Jumladan:

bemorni qabul qilish, tibbiy ko‘rik va maslahat berish;

bemorga tibbiy-profilaktika xizmatlarini ko‘rsatish;

bemorni profilaktik va skrining tekshiruvlardan o‘tkazish;

kasallikkarni Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari doirasida tashxislash va bemorda davolash standartlari hamda klinik protokollariga muvofiq klinik-laborator, funksional va instrumental tekshiruvlarni o‘tkazish, tashxislash, davolash, reabilitatsiya hamda palliativ xizmatlarni ko‘rsatish;

BTSYOMda mavjud hamda Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari doirasidagi dori va sarflov vositalariga (amaldagi tartibga ko‘ra) retsept rasmiylashtirish yoki berish;

BTSYOMda, BTSYOM kunduzni statsionarida, jismoniy shaxsning doimiy va vaqtinchalik yashash joyida Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari doirasidagi davolash, muolaja va amaliyotlarni o‘tkazish;

mehnatga vaqtincha layoqatsizlikni ekspertiza qilish;

bemor o‘limini qayd qilish va rasmiylashtirish;

sog‘lom turmush tarzi tamoyillari (zararli odatlardan voz kechish, to‘g‘ri ovqatlanish va boshqalar) to‘g‘risida bemorga ma’lumot berib borish.

**1.2.** Bemor tibbiyot xodimlari tomonidan berilgan tavsiyalarga to‘liq amal qiladi, o‘z sog‘lig‘ini mustahkamlash va sog‘lomlashtirishga doir barcha choralarни ko‘radi hamda ular tomonidan aniqlab berilgan havf omillarini sog‘lom turmush tarziga rioya qilgan holda bartaraf etadi.

## **2. Tomonlarning huquq va majburiyatları**

### **2.1. BTSYOM oilaviy shifokorining huquqlari:**

2.1.1. Bemor tomonidan **2.4-bandda** belgilangan talablar bajarilmagan taqdirda BTSYOM oilaviy shifokori tuzilgan bitimni bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega. Bunda, bemorga BTSYOM tomonidan ko‘rsatiladigan keyingi barcha tibbiy xizmatlar (shoshilinch va kechiktirib bo‘lmaydigan tez tibbiy yordam bundan mustasno) btitim bekor qilingan kundan boshlab pullik asosida amalga oshiriladi.

### **2.2. BTSYOM oilaviy shifokorining majburiyatları:**

2.2.1. Bemorga Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari doirasida tibbiy xizmatlarni o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq hajmda ko‘rsatish.

2.2.2. Belgilangan muddatlarda bemorni qabul qilish, uni tegishli tibbiy ko‘riklardan o‘tkazish va maslahat berish. Milliy emlash kalendariga muvofiq bolalarda profilaktik emlashlarni o‘tkazish.

2.2.3. Tashxislash va davolash standartlariga muvofiq bemorni tor soha shifokorlariga, zarur hollarda shifoxonalarga yo‘llanma berish orqali yo‘llash.

2.2.4. BTSYOMda mavjud hamda Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari doirasidagi dori va sarflov vositalariga (amaldagi tartibga ko‘ra) retsept rasmiylashtirish yoki berish.

2.2.5. Bemorning ambulator sharoitda davolanishi uchun amaldagi tashxislash va davolash standartlari va klinik protokollarga rioya etgan holda kunduzgi statsionarda davolanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

2.2.6. Bemorga dori vositalarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida qabul qilish tartibini tushuntirish hamda dori vositasining nojo‘ya ta’sirlari to‘g‘risida ma’lumot berish.

2.2.7. Bemorga sog‘lom turmush tarzi tamoyillari (zararli odatlardan voz kechish, to‘g‘ri ovqatlanish va boshqalar), kasalliklarning oldini olish to‘g‘risida ma’lumotlar berib borish.

2.2.8. Kasalliklarni erta aniqlash va dispanser ro‘yhatiga olish, sog‘lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirish hamda berilgan tavsiyalar bajarilishini doimiy nazorat qilish.

2.2.9. Agar bemor BTSYOMga hamda oilaviy shifokorga biriktirilgan hududda doimiy yoki vaqtinchalik istiqomat qilsa oilaviy shifokorning tibbiyot brigadasi tomonidan Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning

kafolatlangan hajmlari doirasida patronaj xizmatini ko‘rsatish, uy shifoxonasida davolash ishlarini tashkil qilish, (insult, infarkt, sil, xavfli o’sma kasalligi va boshqa kasalliklar bilan og‘riganda) bemorning doimiy yashash joyi yoki vaqtincha yashash joyida va (yoki) BTSYOMda unga palliativ tibbiy yordamlarni ko‘rsatish.

2.2.10. Bemorni mehnatga vaqtincha layoqatsizligini aniqlash uchun tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish, tekshiruv natijasiga ko‘ra bemorga mehnatga vaqtincha layoqatsizlik varaqasini rasmiylashtirish yoki asoslantirgan xolda rasmiylashtirishni rad etish.

2.2.11. Bemorning biologik o‘lim holati tasdiqlanganidan so‘ng fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo‘limi tomonidan o‘lim haqida dalolatnama yozushi qayd qilinishi uchun o‘lim haqida tibbiy ma’lumotnomani shakllantirish.

### **2.3. Bemor quyidagi huquqlarga ega:**

2.3.1. O‘z sog‘lig‘ining holati to‘g‘risida ma’lumot, shu jumladan tekshirish natijalari, qanday kasali borligi, qanday tashxis qo‘yilganligi, kasallikning bundan buyon qanday kechishiga oid taxminlar, davolash usullari va bu usullar bilan bog‘liq xavf-xatar, tibbiy aralashuvning ehtimol tutilgan turlari va ularning oqibatlari, amalga oshirilgan davolashning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish;

2.3.2. O‘ziga nisbatan tibbiyat xodimlari tomonidan hushmuomalik bilan tibbiy xizmatlar ko‘rsatilishiga;

2.3.3. Tibbiy aralashuvga rozilik berish;

2.3.4. Tibbiy aralashuvni rad etishga;

2.3.5. Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari doirasidagi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan kasalliklar ro‘yxatiga muvofiq dori va sarflovl vositalari uchun (amaldagi tartibga ko‘ra) retsept olish yoki BTSYOMdan bepul dori va sarflovl vositalarini olishga;

2.3.6. Qabul qiladigan dori va sarflovl vositalarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida qabul qilish tartibi hamda ularning nojo‘ya ta’sirlari to‘g‘risidagi ma’lumot olishga;

2.3.7. Sog‘lom turmush tarzi tamoyillari (zararli odatlardan voz kechish, to‘g‘ri ovqatlanish va boshqalar), kasalliklarning oldini olish to‘g‘risida ma’lumotlar olishga;

2.3.8. Milliy emlash kalendariga muvofiq bolalarda profilaktik emlashlarni olishga;

2.3.9. Oilaviy shifokor tavsiyasiga ko‘ra tashxislash va davolash standartlariga muvofiq tor soha shifokorlariga, zarur hollarda shifoxonalarga yo‘llanma olishga;

2.3.10. Amaldagi tashxislash va davolash standartlari va klinik protokollarga muvofiq Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari doirasida kunduzgi statsionarda davolanishiga;

2.3.11. Agar bemor o‘zi bitim tuzgan oilaviy shifokorga biriktirilgan hududda doimiy yoki vaqtinchalik istiqomat qilsa oilaviy shifokorming tibbiyat brigadasi tomonidan patronaj xizmatini olishga, ko‘rsatmaga ko‘ra uy shifoxonasida davolashnishga, (insult, infarkt, sil, xavfli o‘sma kasalligi va boshqa kasalliklar bilan og‘riganda) o‘zining doimiy yashash joyi yoki vaqtincha yashash joyida va (yoki) BTSYOMda palliativ tibbiy yordamlarni olishga;

2.3.12. Mehnatga vaqtincha layoqatsizligini aniqlash va qayd etish uchun tibbiy tekshiruvdan o‘tishga;

2.3.13. Bemorning biologik o‘lim holati tasdiqlangan taqdirda o‘zining yaqin qarindoshlariga o‘lim haqida tibbiy ma’lumotnomasi taqdim etilishiga;

2.3.14. Tibbiy yordam so‘rab murojaat qilganligi, sog‘lig‘ining holati, qo‘yilgan tashxis to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda uni tekshirish va davolash chog‘ida olingan boshqa ma’lumotlar sir saqlanishi;

2.3.15. Shifokorni va davolash-profilaktika muassasasini tanlash;

2.3.16. O‘zi bitim tuzgan oilaviy shifokorni chorak davomida bir marta, biroq bir moliya yilda ko‘pi bilan ikki marta o‘zgartirishga.

#### **2.4. Bemorga qo‘yiladigan talablar:**

2.4.1. Sog‘lom turmush tarziga rioya etish, zararli odatlardan (tamaki mahsulotlari va giyohvand moddalarini iste’mol qilish, spirtli ichimliklarni suiste’mol qilish va boshqalardan) voz kechish, to‘g‘ri ovqatlanish;

2.4.2. Belgilangan muddatlarda o‘z vaqtida va yoki oilaviy shifokor tavsiyasiga ko‘ra profilaktik tibbiy ko‘riklar hamda skrining tekshiruvlaridan o‘tish;

2.4.3. Tibbiyat xodimlari bilan hamkorlik qilish, ular bilan muloqot qilishda hurmat ko‘rsatish hamda sog‘lig‘ida yuz bergan barcha holatlar haqida oilaviy shifokori yoki tibbiyat brigadasi hamshiralarini xabardor qilish;

2.4.4. Dori va sarflovlarning vositalarini uy sharoitida ko‘rsatmalarga muvofiq holda saqlash va shifokor tomonidan berilgan tavsiyalarga binoan qabul qilish.

2.4.5. Milliy emlash kalendariga muvofiq o‘z vaqtida biriktirilgan oilaviy shifokoriga murojaat qilish.

### **3. Mahfiylik**

3.1. Xizmat ko‘rsatuvchi va bemor bitim bo‘yicha ma’lumotlarning mahfiyligini ta’minlash uchun javobgardir.

3.2. Xizmat ko‘rsatuvchi va bemorning bir-biriga bitim predmeti bilan bog‘liq taqdim etgan ma’lumotlari mahfiy hisoblanadi. Tomonlar olingan ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilinishining oldini olish uchun barcha zarur va yetarli choralarini ko‘radilar

3.3. Xizmat ko‘rsatuvchi va bemor ushbu bitim bo‘yicha shifokor siri va shaxsga doir ma’lumotlarning xavfsizligi uchun javobgardir.

#### 4. Yakuniy qoidalar

4.1. Ushbu bitimda belgilangan huquq va majburiyatlarning bajarilishi jarayonida tomonlar o‘rtasida yuzaga kelgan har qanday tushunmovchilik va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi yoxud Bemorning yozma murojaati asosida e’tiroz tartibida ko‘rib chiqiladi. Murojaatni ko‘rib chiqish va va uning mazmuniga quyiladigan talablar amaldagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

4.2. Kelishmovchiliklarni muzokaralar yo‘li bilan hal qilishning imkonini bo‘lmagan taqdirda, nizolar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq sud orqali hal etiladi.

4.3. Mazkur bitim tomonlar imzolagan kundan kuchga kiradi, uning talablarini bajarishga ikki tomon birdek ma’sul hisoblanadi.

4.4. Ushbu bitim uch nusxada tuzilib, BTSYOM, oilaviy shifokor va bemorga bir nusxadan beriladi.

Тиббиёт муассаса (QR-код)



Хизматдан фойдаланувчи

